

**Yangi O'zbekistonda Kamta'minlangan oilalarning ijtimoiy
himoya qilish mexanizmlari**

*Farg'ona davlat universiteti
talabasi Suyumova Marxabo*

***Annotatsiya:** Yangi O'zbekistonimizda bugungi kunda har bir oila e'tibor markazida shu bilan birgalikda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar alohida ahamiyat kasb etadi desak adashmagan bo'lamiz. Ushbu maqolada kamta'minlangan oilalarga berilayotgan e'tibor ular uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** Ijtimoiy himoya, Ijtimoiy himoya yagona reystri, Kamta'minlangan oila, Temir daftari, moddiy yordam, oila.*

Bugungi kunda O'zbekistonimizda olib borilayotgan islohotlar, berilayotgan imkoniyatlar sezilarli darajada yildan yilga oshirilib borilmoqda. Muhtaram prezidentimiz tomonidan oilalarga berilayotgan e'tibor ham alohida ahamiyat kasb etadi: «Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!», — deya ta'kidlagan O'zbekiston Prezidenti.¹ Hammamizga ma'lumki O'zbekistonimiz ijtimoiy davlatdir. Ijtimoiy davlat – bu davlatning konstitutsiyaviy huquqiy maqomi bo'yicha sifat tavsifi bo'lib, unda inson va fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklari hamda davlatning tegishli majburiyatlari konstitutsiyaviy kafolatlanganligini taqozo etadi.² Ijtimoiy davlat insonlarning mehnati va sog'lig'ini muhofaza qilish, ish haqining minimal kafolatlangan miqdorini belgilash, oila, onalik, otalik va bolalikka, nogironlar va

¹ <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/prezident-oila-kichik-vatan>

² <http://zarnews.uz/uz/post/ijtimoiy-davlat-nima-huquqiy-davlat-chi>

keksa kishilarga yordam berishni ta'minlash, davlat pensiyalari, nafaqalari va ijtimoiy himoyaning boshqa turlarini kafolatlash majburiyatiga ega. Ijtimoiy davlatning moddiy zamini muhtoj qatlamlarning yashash minimumini ta'minlay oladigan iqtisodiy rivojlanishning yuksak darajasidir.³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining birinchi moddasida O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.⁴ Deb belgilab qo'yilgan. Ijtimoiy davlatda asosan aholining ehtiyojmand qismlariga alohida e'tibor beriladi. Ulardan nogironligi bo'lgan shaxslar, yakka yolg'iz keksalar, ota-ona qarmog'isiz qolgan bolalar, kamta'minlangan bolalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Kamta'minlangan oilani ko'rib chiqsak. Ijtimoiy himoya reystrida turgan oilalarni kamta'minlangan oila deb aytishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-avgustdagi PQ-4797-sonli "Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish va ularni tayinlash tartib-taomillari "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi vositasida amalga oshirilishi belgilangan. Bolalar nafaqasi va kam ta'minlangan oilalariga moddiy yordam tayinlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-martdagi 122-sonli Qarori bilan tasdiqlangan **"Kam ta'minlangan oilalarni "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi orqali aniqlash hamda ularga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom"**i asosida amalga oshirilmoqda.⁵ Bu islohotdan shuni ko'rib turibmizki davlatimiz e'tiboridan hech qanday shaxs yoki oilalar e'tibordan chetda qolmaydi. Ijtimoiy himoya yagona reystrida turgan oilalar uchun esa bir qancha xizmat va yordamlar belgilab qo'yilgan ularni ko'rib chiqsak.

³ <https://zarnews.uz/uz/post/ijtimoiy-davlat-nima-huquqiy-davlat-chi>

⁴ <https://constitution.uz/oz/clause/index#section2>

⁵ <https://arnasoy.jizzax.uz/yangiliklar/2058-ijtimoiy-himoya-yagona-reestri-axborot-tizimi-orqali-kam-taminlangan-deb-etirof-etilganligi-togrisida-malumotnomani-qanday-olsa-boladi.html>

Itimoiy xizmat va yordam turlari:

- davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar **to'lovidan ozod etish;**
- maktabgacha ta'lim muassasalarida o'rnatilgan miqdorlarda ota-onalar **to'lovini to'lash;**
- umumiy o'rta ta'lim maktablarida **darsliklar ijara to'lovlaridan ozod etish;**
- umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun qishki **kiyim-bosh berish;**
- ayrim fanlarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta maktablar o'quvchilarini **ovqatlanish xarajatlaridan ozod etish;**
- san'at maktablari, musiqa maktablari, «Barkamol avlod» markazlari va boshqa maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'qish xarajatlaridan ozod etish;
- kam ta'minlangan oilalarning nogironligi bo'lgan a'zolarini protez — **ortopediya moslamalari bilan ta'minlash;**
- ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalarida bepul maxsus (ambulator yoki kunduzgi) tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha yo'llanma (order) olish.⁶ Mana shunday xizmat va yordam turlari mavjud.

Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam berish jarayonlari tubdan soddalashdi. Jumladan, endilikda ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam olish uchun fuqaro faqatgina o'z pasporti bilan murojaat etish imkoniyati yaratilgan bo'lib, oilaning zarur ma'lumotlari "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali tegishli vazirlik va idoralarning axborot tizimlaridan elektron tarzda olinadi.⁷ Bu ham aholimizga yengillik beradigan xizmat turlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy himoya tizimida oilalarni qiyin hayotiy vaziyatdan olib chiqish uchun ular uchun "Temir daftari", "Ayollar daftari" joriy etildi. Temir daftari bu ijtimoiy ahvoli og'ir bo'lgan oilalarni

⁶ <https://advice.uz/oz/document/2279>

⁷ <https://yuz.uz/uz/news/raqamli-tizimning-savobli-amallari>

muommosini bartaraf etish va nazorat olib borish bo'yich ma'lumotlar bazasi hisoblanadi.

“Temir daftar”ga quyidagi toifadagi oilalar kiritiladi:

- kam ta'minlangan oila, deb e'tirof etilgan oilalar;
- ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan a'zolari

mavjud oilalar;

- kam ta'minlangan yakka-yolg'izlar va keksalar;
- boquvchisini yo'qotgan ehtiyojmand oilalar;
- ko'p (4 va undan ortiq) farzandli moddiy ko'makka muhtoj oilalar;
- mehnatga layoqatli ishsiz a'zolari mavjud ehtiyojmand oilalar;
- tibbiy yordamga muhtoj ehtiyojmand oilalar (surunkali yoki og'ir

nogironlikka olib keluvchi kasallikka chalingan va nogironlik guruhi belgilanmagan a'zolari mavjud yetarli daromad manbaiga ega bo'lmagan oilalar);

- noturar joylarda istiqomat qilayotgan, o'zi yoki birgalikda yashovchi oila a'zolarining nomida turar joy bo'lmagan ehtiyojmand oilalar.⁸

“Temir daftar”da quyidagi yordam turlari mavjud:

“Temir daftar” ga kiritilgan oila a'zolari ishga joylashtiriladi.

Tomorqadan foydalanish uchun ko'maklashiladi.

Moddiy yordam beriladi.

Tadbirkorlikka jalb qilinadi.

Tibbiy xizmat ko'rsatiladi.

Xulosa qilib shuni aytolamizki yangi O'zbekistonimizda ijtimoiy himoya tizimi sezilarli darajada o'sdi. Davlatimiz e'tiboridan hech kim chetda qolmaydi hoh u ijtimoiy himoyaga muhtoj oila bo'lsin hoh nogironligi bo'lgan shaxslar bo'lsin. Bugungi kunda biz qanchalik oilalar muommolarini o'rganib ularga yordam va e'tibor bersak u oilada o'sib kelayotgan yosh avlod shunchalik bilimli jamiyatimiz uchun o'z hissasini qo'sha oladigan vatanimizga mehr-muhabbatli o'z innovatsiyalariga va loyihalariga ega shaxslar bo'lib ulg'ayadi.

⁸ <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/temir-daftar-dagilar-qanday-imtiyozlardan-foydalanadi>

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ijtimoiy ish etikasi. Darslik. Toshkent – “Fan va texnologiya”, 2015
2. M.X.G‘aniyeva, Q.N.Kayumov, M.B.Sherov. Ijtimoiy ishga krish. Darslik – Toshkent: 2020
3. A.V.Vaxabov, Sh.Sh.Zaxidova, B.B.Baxtiyorov, D.Sh.Odinayev, J.N.Fayzullayev. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta’minotga kirish darslik. Toshkent – “Iqtisod-moliya”, 2018
4. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/temir-daftar-dagilar-qanday-imtiyozlardan-foydalanadi>
5. <https://yuz.uz/uz/news/raqamli-tizimning-savobli-amallari>
6. <https://advice.uz/oz/document/2279>
7. <https://arnasoy.jizzax.uz/yangiliklar/2058-ijtimoiy-himoya-yagona-reestri-axborot-tizimi-orqali-kam-taminlangan-deb-etirof-etilganligi-togrisida-malumotnomani-qanday-olsa-boladi.html>
8. <https://constitution.uz/oz/clause/index#section2>
9. <https://zarnews.uz/uz/post/ijtimoiy-davlat-nima-huquqiy-davlat-chi>
10. <https://zarnews.uz/uz/post/ijtimoiy-davlat-nima-huquqiy-davlat-chi>
11. <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/prezident-oila-kichik-vatan>